



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 01 | pp. 205-211 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

IQTISODIYOTNI BARQARORLASHTIRISHDA DAVLAT MOLIYA SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHLARI



Jabborova Dilafuz Sodiq qizi,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni barqarorlashtirish maqsadida olib borilayotgan davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini tahlil qiladi. Tadqiqot davomida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilish, tashqi qarzlarni kamaytirish, investitsiya muhitini yaxshilash va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ijtimoiy sohani rivojlantirish yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu yo'nalishlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsiya jalb qilish va aholining hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlari mamlakatning iqtisodiy o'sishiga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Maqolada, shuningdek, O'zbekiston davlat moliya siyosatining strategik maqsadlari va amalga oshirilgan islohotlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, Davlat moliya siyosati, O'zbekiston, Ustuvor yo'nalishlar, Iqtisodiy modernizatsiya, Diversifikatsiya, Tashqi qarzlarni kamaytirish, Investitsiya muhiti, Xususiy sektor, Ijtimoiy sohani rivojlantirish, Moliyaviy shaffoflik, Fiskal siyosat, Iqtisodiy islohotlar, Davlat byudjeti.

Kirish.

Yaqin o'tmishda, mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy rivojlanishiga to'sqinlik qilib qolgan moliyaviy siyosat o'z kamchiliklarini namoyon qildi. Uzoq davrlar mobaynida mamlakatni iqtisodiy rivojlanishida moliya va faol moliyaviy siyosatning ahamiyatiga yetarlicha baho berilmadi. Iqtisodiyotda moliyaviy munosabatlarning ahamiyatini buzib ko'rsatish sodir bo'ldi, moliya va moliyaviy dastaklarning faol ahamiyati inkor etilib, moliyaviy siyosat talab etilgan muammolarni xal qilishga qaratilgan zarur usullarni ishlab chiqishga ojizlik qilib qoldi. Rivojlanishning uzoq davriga mo'ljallangan ibratli konsepsiyalarni ishlab chiqilmaganligi, kam samara beradigan, qisqa muddatli foyda olishni ko'zlab ko'rilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotni og'ir ahvolga olib keldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishib, iqtisodiy rivojlanishda bozor munosabatlariga o'tishda, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lgani kabi, moliya va moliyaviy munosabatlarda ham chuqur islohotlarni amalga oshirishga to'g'ri keldi.

Davlat moliyasi davlatning markazlashgan pul daromadlarini shakllantirish va ulardan o'z funksiyalarini to'laqonli bajarish maqsadida turli yo'nalishlarda foydalanish

bilan bog'liq munosabatlar yig'indisidir. Bu munosabatlarning turli-tumanligi asosida davlat moliyasining bir qator aniq tashkiliy shakllari shakllanadi [1], bular:

- davlat byudjeti;
- davlatning byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalari;
- davlat krediti;
- davlat korxonalar moliyasi.

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra davlat moliyasi – davlatning va uning mulkidagi davlat korxonalarining ixtiyorida moliyaviy resurslarning shakllanishi va kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, jamiyat a'zolarining ortib borayotgan ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini qondirish, mamlakat mudofaasi va davlat boshqaruvini ta'minlash bo'yicha xarajatlarning amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan, yalpi ichki mahsulotning qiymatini taqsimlash va qayta taqsimlash asosida sodir bo'ladigan pul munosabatlari yig'indisidir [2].

Davlat moliyasi sohasida sodir bo'ladigan pul munosabatlarining subyektlari bo'lib davlat (hukumatning tegishli organlari timsolida), yuridik shaxslar (korxonalar va tashkilotlar timsolida) va jismoniy shaxslar ishtirok etadilar.

Davlat moliyasi – moliyaviy resurslarning markazlashgan jamg'armalarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq real pul aylanmasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidir [3].

Davlat moliyasi davlatning iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy vositalarni boshqarish jarayonini o'z ichiga oladi. U quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

Moliyaviy resurslarni shakllantirish: Davlat moliyaviy resurslarni soliqlar, bojxona to'lovlari va boshqa manbalar orqali shakllantiradi.

Resurslarni taqsimlash va foydalanish: Olingan mablag'lar davlat byudjeti orqali taqsimlanadi va turli sohalarda foydalaniladi. Masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash, mudofaa, ijtimoiy himoya va boshqalar.

Iqtisodiy munosabatlarni boshqarish: Davlat moliyasi iqtisodiyotni barqarorlashtirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Moliya tizimida real pul aylanmasi – bu qiymat harakatini yuzaga keltiruvchi hamda pul to'lovlari va hisob-kitoblar oqimlari bilan birga kuzatiluvchi iqtisodiy jarayondir. Real pul aylanmasi ob'ekti sifatida kengaytirilgan ishlab chiqarishning moliyalashtirish manbalari hisoblanuvchi moliyaviy resurslar namoyon bo'ladi [4].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlari tahlil qilindi. Tahlil davomida quyidagi metodlar ishlatilgan:

Tahlil metodlari: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, davlat moliya siyosatining strategik yo'nalishlari va amalga oshirilgan islohotlar.

Analitik usullar: Davlat byudjeti va moliya tizimining shaffofligi, fiskal tavakkalchiliklarni baholash va moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobini yuritish.

Komparativ tahlil: O'zbekistonning iqtisodiyotni barqarorlashtirish bo'yicha davlat moliya siyosatini boshqa mamlakatlarning aniq maqsadlar va strategiyalariga solishtirish.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlari haqida ko'plab ilmiy ishlanmalar va amaliy tadqiqotlar mavjud. Jumaniyazov va Abdurasulov (2022) o'z maqolalarida O'zbekiston davlat moliya tizimidagi islohotlar va rivojlantirish istiqbollarini tahlil qilganlar [5]. Ular davlat moliya tizimining shaffofligini oshirish, moliyaviy aktivlar va majburiyatlarni boshqarish bo'yicha tavsiyalar berganlar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, 2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash bilan bog'liq bo'lib, davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va farmoishlari iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari haqida bo'lib, iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Tahlil va natijalar.


O'zbekiston Respublikasi davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilish: Ushbu yo'nalish asosan sanoat, qishloq xo'jaligi, energetika va xizmat ko'rsatish sohalarini modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilishga qaratilgan. Davlat tomonidan qabul qilingan islohotlar va investitsiya dasturlari iqtisodiy o'sishni tezlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish orqali amalga oshirilmoqda [6].

Tashqi qarzlarni kamaytirish va davlat moliya tizimini shaffof qilish: Davlat moliya tizimini shaffof qilish va tashqi qarzlarni kamaytirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar ko'rildi. Xususan, davlat byudjetining daromad va xarajatlarini ochiq va shaffof qilish, soliq tizimini optimallashtirish va davlat qarzlarini samarali boshqarish choralari ko'rildi [7].

Investitsiya muhitini yaxshilash va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash: Investitsiya muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlash, investitsiya kiritish tartiblarini soddalashtirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash choralari ko'rilgan [8].

Ijtimoiy sohani rivojlantirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash: Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli dasturlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va madaniyat sohalarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar olib borilmoqda. Bu esa o'z navbatida, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi [9].



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat moliya tizimining tarkibiy tuzilishi [10].

Davlat moliyasi – makroiqtisodiy tartibga solishning kuchli dastagidir. Ushbu instrumentdan mohirona foydalangan holda davlat iqtisodiy o'sish sur'atlarini tartibga solish, pul birligi barqarorligini saqlab turish, ssuda foizlari darajasini tartibga solish, kon'yunktur tebranishlarni silliqlash kabi turli vazifalarni hal qilishi mumkin. Ushbu bo'limda biz davlat moliyasining mohiyati, tushunchalari va asosiy tarkibiy qismlarini ko'rib chiqamiz.


Davlat moliyasi – bu moliyaviy resurslarning markazlashgan fondlarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq holda real pul aylanmasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidir [11].

Davlat moliyasi – bu davlat faoliyatining asosidir, faqat etarli miqdordagi mablag'larni tasarruf etgan holdagina davlat ijtimoiy siyosatni amalga oshirishi, iqtisodiyotning alohida tarmoqlarini qo'llab-quvvatlashi, ilmiy tadqiqotlar o'tkazishi yoki mudofaani ta'minlashi mumkin.

Har bir mamlakatning normal ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanishi uchun samarali faoliyat qiluvchi davlat zarur. Davlat jamiyatga va mamlakat fuqarolariga zarur tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiyot va ijtimoiy tarmoqlarning samarali faoliyat qilishi uchun me'yoriy va institutsional tuzilmalarning qonuniy asoslarini yaratish va shu bilan o'z fuqarolarining yashashi va ishlashi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, moddiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratib berish vazifalarini bajaradi. Shu vazifalardan kelib chiqqan holda davlatning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat.

Davlat yuqorida bayon qilingan o'z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarishi, shuningdek, mamlakat taraqqiyoti-ning har bir bosqichida dolzarb bo'lgan strategik maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun mamlakatda yaratilgan moliyaviy resurslarning ma'lum bir qismini o'z qo'lida to'plamog'i obyektiv zaruriyatdir. Aynan shu

obyektiv zaruriyatning mavjud bo'lishi davlat moliyasining mavjud bo'lishini va amal qilishini taqozo etadi.



2-rasm. Davlatning moliya tizimida asosiy funksiyalari [10].

Moliya tizimi uchun, umuman olganda, quyidagi davlat moliyasini boshqarish funksiyalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi: rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, nazorat [12].

1. Rejalashtirish funksiyasi maqsadlarni shakllantirish va ularga erishish yo'llarini tanlashni o'z ichiga oladi. Rejalashtirish funksiyasiga, odatda, rivojlanish maqsadlari va ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda vaqt jihatidan cheklangan moliyaviy resurslar hajmini taqsimlash, ularni respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida qayta taqsimlash ham kiritiladi. Mazkur funktsiya tegishli moliya yili va istiqbol uchun byudjetlar, moliyaviy resurslar balanslari, soliqqa tortish tartiblari va boshqalar tuzish orqali amalga oshiriladi.

2. Tashkil etish funksiyasi byudjet tuzilishi va byudjet tasnifini o'z ichiga olib, byudjetni tuzish, tasdiqlash va bajarish tartibini belgilash, vakolatli kredit muassasalarini tanlash, byudjet jarayonida qonunchilik va ijro hokimiyati organlari vakolatlarini cheklash, moliya organlarining funktsional bo'linmalarining huquq va majburiyatlarini aniqlash zaruratini taqozo etadi. Davlatning byudjet oqimlari va moliyaviy resurslarini tartibga solish va nazorat qilish ichki tizimini tashkiliy tuzish jarayoni ushbu jarayonga bog'liq.

3. Rag'batlantirish funksiyasi maqsadlarni ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan faoliyatga asoslanadi. Ushbu funktsiya yordamida moliyaviy faoliyatga ta'sir etuvchi va uning pul mablag'lariga ehtiyojini hisobga oluvchi omillar tushuntiriladi. Moliyaning taktik va strategik jihatlari bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida xodimlarning xulq-atvorini belgilovchi omillar muhim o'rin tutadi.

4. Nazorat funksiyasi belgilangan maqsadlarni amalga oshirishga ko'maklashishni anglatadi. Bu natijalarni baholash etaloni, mezonni hisoblanuvchi norma va normativlar ishlab chiqish, erishilgan yutuqlarni belgilangan maqsadlar va o'rnatilgan mezonlar bilan solishtirish, moliyaviy faoliyat shart-sharoitlari va omillariga zaruriy o'zgartirishlar kiritishni ta'minlash kabilarni o'z ichiga oladi.

Davlat moliyasining real pul aylanmasini tartibga solish bilan bog'liq funksiyalari:

Davlat moliyasining taqsimot funksiyasi shundan iboratki, qayta yaratilgan qiymatni taqsimlash va qayta taqsimlash orqali umumdavlat ehtiyojlari ta'minlanadi, iqtisodiyotning ijtimoiy sektorini moliyalashtirish manbalari shakllanadi, yagona byudjet tizimi doirasida byudjetlar va byudjetdan tashqari fondlar balanslashtirilganligiga erishiladi.

Davlat moliyasi moliya resurslarini markazlashgan fondlar tizimi orqali qayta taqsimlash asosida ishlaydi. Ushbu funktsiya yordamida ular alohida tarkibiy tuzilmalar doirasida bo'lgani kabi, umumdavlat miqyosidagi ishlab chiqarish jarayonlariga xizmat qiladi. Taqsimot funksiyasi shundan iboratki, qayta yaratilgan qiymat byudjet, banklar, kontragentlar oldida korxonalarining moliyaviy majburiyatlarini bajarish maqsadida taqsimlanishi lozim. Uning natijasi markazlashgan pul mablag'lari fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish, iqtisodiyotning noishlab chiqarish sohasini ta'minlash sanaladi.

Moliyaning taqsimot funksiyasini amalga oshirishning asosiy ob'ektlari byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga majburiy to'lovlar, shuningdek, byudjet defitsitini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi. Turli darajadagi byudjetlar o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlash jarayoni alohida o'rin tutadi. 2. Davlat moliyasining nazorat funksiyasi davlatning o'zi ham qatnashayotgan real pul aylanmasida, markazlashgan pul mablag'lari fondlari shakllanishida nazoratni amalga oshirishdan iborat. Nazoratning ikki shakli mavjud: moliyaviy ko'rsatkichlar, to'lovlar va hisob-kitoblardagi o'zgarishlar ustidan nazorat; moliya strategiyasi amalga oshirilishini nazorat qilish.

Birinchi holda majburiy yoki ogohlantiruvchi xarakterdagi choralarni qo'llovchi sanksiyalar va rag'batlantirish tizimlari qo'llaniladi. Ikkinchi holda gap uzoq muddatli moliya siyosatini amalga oshirish haqida borib, bunda asosiy e'tibor o'zgarishlarni oldindan ko'ra olish va ularga moliyalashtirish tartibi va shartlarini moslashtirishga qaratiladi. Moliya tizimidagi muntazam o'zgarishlar, yangilanishlar bunga hukumatning barcha bo'g'inlaridan mutanosib javobni taqozo etadi. Moliyaning nazorat funksiyasi doimo aniq namoyon bo'ladi. U muayyan darajadagi byudjetga, byudjetdan tashqari fondga, korxonaga yoki muassasa va boshqalarga yo'naltirilishi mumkin.

Davlat moliyasining nazorat funksiyasi quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi: 1) markazlashgan fondlarga mablag'lar to'g'ri va o'z vaqtida o'tkazilishi ustidan nazorat; 2) iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olgan holda pul mablag'larining markazlashgan fondlarining belgilangan parametrlarga rioya etishi ustidan nazorat; 3) moliyaviy resurslardan maqsadli va samarali foydalanish ustidan nazorat [13].

Moliyaviy resurslarning maqsadli va samarali ishlatilishi pul fondlarining shakllanishi va sarflanishiga doir tuziladigan rejali va hisobot smetalari asosida nazorat qilinadi.

Xulosa.

Ushbu maqolada O'zbekiston davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlari va ularning iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilindi. Maqola natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat moliya siyosatining ustuvor yo'nalishlari iqtisodiyotni modernizatsiya

qilish, tashqi qarzlarni kamaytirish, investitsiya muhitini yaxshilash va ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yo'nalishlar mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Davlat tomonidan qabul qilingan islohotlar va investitsiya dasturlari o'z samarasini ko'rsatmoqda va O'zbekistonning kelajakdagi barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.I. Nurmuxamedova, Sh.K. Xamdamiyov, "davlat moliyasi", toshkent, "iqtisod-moliya" 2020.
2. Samuelson, Paul A., and William D. Nordhaus. "Economics.", McGraw-Hill Education, 19th Edition. Bu iqtisodiyot bo'yicha keng qo'llaniladigan darslik bo'lib, davlat moliyasi haqida batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.
3. Samuelson, Paul A., and William D. Nordhaus. "Economics." McGraw-Hill Education, 19th Edition, Rosen, Harvey S. "Public Finance." McGraw-Hill Education, 8th Edition.
4. Rosen, Harvey S. "Public Finance.", McGraw-Hill Education, 8th Edition.
5. "Science and Education" jurnali, 2022 yil, 3-son, 5-mavsum. Maqolalar "Davlat moliyasini boshqarish, O'zbekistonda davlat moliyasini samarali boshqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat moliya tizimini takomillashtirish bo'yicha strategiyaning ustuvor yo'nalishlari", [O'zbekistonda davlat moliya tizimidagi islohotlar va rivojlantirish istiqbollari](#)
6. "IQTISODIYOTNI MODERNIZATCIYALASH VA DIVERSIFIKATCIYALASH STRATEGIYASI" o'quv uslubiy qo'llanma [Iqtisodiyotni modernizatciyalash va diversifikatciyalash strategiyasi](#)
7. "O'zbekistonda davlat qarzi siyosati va uning samaraligi tahlili". Azkurs.org
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, [Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida - Xalq so'zi](#)
9. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida, [2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida](#)
10. B.I. Nurmuxamedova, Sh.K. Xamdamiyov, "davlat moliyasi", toshkent, "iqtisod-moliya" 2020
11. Samuelson, Paul A., and William D. Nordhaus. "Economics." McGraw-Hill Education, 19th Edition
12. "Davlat moliyasi: Nazariya va amaliyot" - T.M. Maslova., "Public Finance", Harvey S. Rosen, "Economics", Paul A. Samuelson va William D. Nordhaus.
13. Samuelson, Paul A., and William D. Nordhaus. "Economics." McGraw-Hill Education, 19th Edition., Rosen, Harvey S. "Public Finance." McGraw-Hill Education, 8th Edition, "Davlat moliyasi: Nazariya va amaliyot" - T.M. Maslova.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

